



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No'rbo'ta o'g'li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга таҳлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иқтисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budjet mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187





26.	Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o‘g‘li	O‘zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo‘llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O‘zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne‘matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta‘minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo‘llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg‘unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o‘g‘li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o‘zbekiston sharoitida qo‘llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller’s brand equity model and Aaker’s brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo‘nalishlari	310
43.	Jo‘rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365





52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57.	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'zni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63.	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни	459
64.	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65.	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66.	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67.	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68.	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69.	Sulaymanov Isamiddinovich Akrom	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70.	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71.	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72.	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraudfandning platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73.	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74.	Umarov Abduvahob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550





MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Umarov Abduvahob Tursunovich

*O‘zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.d., dots.
E-mail: umarovabduvahob@gmail.com
ORCID: [0009-0002-3257-8395](https://orcid.org/0009-0002-3257-8395)*

Annotatsiya: Maqolada mintaqalarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmining nazariy asoslari va yo‘nalishlari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hududlarning rivojlanish samaradorligi reytingi ishlab chiqilgan. Mintaqa barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirish uslubiyotini takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlangan. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarini bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, barqaror rivojlanish, konsepsiya, barqaror rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasi

НАПРАВЛЕНИЯ УЛУЧШЕНИЯ МЕХАНИЗМА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ

Умаров Абдувахоб Турсунович

*Национальный университет Узбекистана,
декан экономического факультета, доктор философии, доцент.
E-mail: umarovabduvahob@gmail.com
ORCID: [0009-0002-3257-8395](https://orcid.org/0009-0002-3257-8395)*

Аннотация: В статье исследованы теоретические основы и основные направления реализации механизма концепции устойчивого развития регионов. Разработан рейтинг эффективности развития регионов в целях обеспечения устойчивого развития экономики Республики Узбекистан. Определены направления совершенствования методологии формирования механизма устойчивого развития регионов. Разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию механизма устойчивого развития регионов.

Ключевые слова: регион, устойчивое развитие, концепция, современная концепция устойчивого развития.

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE MECHANISM OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS

Umarov Abduvahob Tursunovich

*National University of Uzbekistan,
Dean of the Faculty of Economics, Doctor of Philosophy, Assoc. Prof.
E-mail: umarovabduvahob@gmail.com
ORCID: [0009-0002-3257-8395](https://orcid.org/0009-0002-3257-8395)*

Abstract: This article examines the theoretical foundations and key directions for implementing the mechanism of the regional sustainable development concept. A regional development efficiency rating has been developed to support the sustainable development of the economy of the Republic of Uzbekistan. The study identifies directions for improving the methodology for establishing the mechanism of regional sustainable development. Furthermore, scientific proposals and practical recommendations have been developed to enhance the mechanism for sustainable regional development.





Keywords: *region, sustainable development, concept, modern concept of sustainable development.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotidagi nomutanosibliklar, geosiyosiy beqarorlik, pandemiya kabi global xavf-xatarlar ta'siriga qaramasdan, dunyo iqtisodiy salohiyati o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra "2023-yil oxiriga kelib global iqtisodiy salohiyat 463,6 trillion dollarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 9,8 foizga ortgan. Ushbu iqtisodiy o'sish XXI asr boshidan buyon qayd etilgan o'rtacha yillik o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada yuqoridir. Valyuta kursi o'zgarishini hisobga olinmaganda, real yalpi global boylik 12,7 foizga o'sib, qayd etilgan eng yuqori yillik ko'rsatkichga aylandi. 2023-yilda jahonda mehnat resurslari jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiy salohiyat o'rtacha 87 489 AQSH dollarini tashkil qildi. So'nggi yillarda jahonda qayd etilayotgan inflyatsiya, xalqaro qo'shilgan qiymat zanjiridagi uzilishlar, global siyosiy beqarorlik ta'sirida iqtisodiy salohiyatning real o'sish sur'atlari pasaydi". Yuqorida qayd etilgan holatlar, jahonda iqtisodiy resurslar taqsimlanishining notekisligi va ulardan samarali foydalanish darajalaridagi tafovutlarning keskinligi sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda mavjud salohiyatdan samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqalarni barqaror rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, ekologik muammolar va hududlararo rivojlanish tafovutlari mintaqaviy rivojlanishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni uyg'unlashtiruvchi kompleks model sifatida e'tirof etiladi [1].

Mintaqalar rivojlanishining nazariy asoslarini shakllantirishda W. Christaller tomonidan ishlab chiqilgan markaziy o'rinlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur nazariya hududlarda iqtisodiy faoliyatning joylashuvi, xizmat ko'rsatish markazlarining shakllanishi hamda resurslardan samarali foydalanish qonuniyatlarini ilmiy asoslab bergan bo'lib, bugungi kunda ham hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik manba hisoblanadi [2].

Innovatsion rivojlanish va hududlarning raqobatbardoshligini baholash masalalari Eickelpasch tomonidan chuqur o'rganilgan. Muallif sanoat innovatsion salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqori bo'lishini asoslab, innovatsiyalarni hududiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatadi [3]. Huggins esa hududlarning raqobatbardoshlik indeksini ishlab chiqish orqali mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini baholash usullarini taklif etgan bo'lib, ushbu yondashuv bugungi kunda hududlar reytingini shakllantirishda keng qo'llanilmoqda [4].

Strategik rivojlanish nazariyasining zamonaviy yo'nalishlari V.L. Kvint tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalash konsepsiyasida keng yoritilgan. Muallif strategik boshqaruvni uzoq muddatli raqobat ustunliklarini ta'minlovchi muhim vosita sifatida baholab, hududlarning barqaror rivojlanishida strategik rejalashtirishning ustuvorligini asoslab beradi [5]. Kvint va Bodrunov jamiyat transformatsiyasi, bilimlar iqtisodiyoti hamda texnologik taraqqiyot sharoitida hududiy rivojlanishning yangi strategik yondashuvlarini ishlab chiqqanlar [5].

Rossiya va Xitoy mintaqalarining innovatsion rivojlanishini strategik rejalashtirish masalalari Van Yu tomonidan o'rganilgan bo'lib, unda hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqilgan [6]. Shuningdek, Shatskaya innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida inson kapitalini rivojlantirish va kadrlar strategiyasini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi [7].

O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida hududiy rivojlanish masalalari bir qator mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.T. Yusupov ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishini rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab





chiqqan [8]. S.Sh. Mirziyoyeva esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategiyalash metodologiyasini takomillashtirib, strategik rejalashtirishning milliy modelini asoslab bergan [9]. T.M. Axmedov hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va kompleks rivojlantirish masalalarini tadqiq etib, mintaqalar oʻrtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish yoʻllarini taklif etgan [10].


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda **mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yoʻnalishlarini** ilmiy asoslashda kompleks va tizimli metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, hududiy boshqaruv hamda institutsional iqtisodiyotga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish koʻrsatkichlarini kompleks baholash tamoyillari qoʻllanildi.

Tadqiqot jarayonida **tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, umumlashtirish, grafik va jadval usullari** hamda **ekspert baholash** metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

XX asrning oxirgi oʻn yilligi va XXI asrning boshlaridan jahonda barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, mintaqalar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni keskin ortdi. Jumladan, “Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar bilan birgalikda bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida barqaror rivojlanishga erishish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada aksariyat mamlakatlarning hukumati tomonidan mamlakatda barqaror rivojlanish dasturlarini amalga oshirish va unga erishishni taʼminlash boʻyicha ishchi guruhlar tashkil etildi. Oʻzbekistonda ham boshqa mamlakatlar singari bu kabi ishlar amalga oshirildi”. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik omillar va innovatsion omillari bilan bogʻliq hisoblanadi. Jumladan, innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birgalikda uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.



1-rasm. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmi⁶⁴

Mamlakatda mintaqalarni barqaror rivojlantirishda ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va innovatsion omillarni oʻz ichiga olgan barqaror rivojlanish konsepsiyalarini amaliyotga izchillik

⁶⁴ Muallif ishlanmasi.






bilan joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda mamlakat mintaqalarini barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmiga asoslanish lozim bo‘ladi (1-rasm).

Mamlakatda iqtisodiy rivojlanish va milliy iqtisodiyot tarmoqlari kesimida hududlarning hisoblangan reyting ko‘rsatkichlari natijalarini umumlashtirgan holda respublika iqtisodiyoti barqaror rivojlanishida hududlarning samaradorlik darajalariga baho berishda har bir yo‘nalish bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari yig‘indisini hisoblash talab yetiladi. Bu orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga respublika viloyatlari iqtisodiy rivojlanish samaradorligining ta‘sirini aniqlashga erishiladi.

Umumlashtirilgan reyting baholash natijalariga ko‘ra, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ko‘rsatkichi 39,3 ballni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hududlarning rivojlanish samaradorligi reytingi (100 ballik baholash tizimida)⁶⁵

Ushbu holat mamlakat iqtisodiyotida barqaror rivojlanish salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmay otganligini anglatadi. Mamlakat hududlari kesimida rivojlanish samaradorligi reytingi natijalari tahliliga ko‘ra, Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarining iqtisodiy rivojlanish samaradorligi boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan va Xorazm viloyatlarida iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan foydalanish holati respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan qoniqarsiz darajada bo‘lgan. Umuman mamlakatning 14 viloyatidan 10 tasida iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ko‘rsatkichi past darajada bo‘lganligi respublikaning barqaror iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligini anglatadi. Ushbu holat keyingi yillarda iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan hududiy dasturlar va ularni amalga oshirishning ta‘sirchan mexanizmini ishlab chiqish orqali amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta‘minlashga ustuvorlik qaratish kerakligidan dalolat beradi.


Mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishning jahon amaliyotiga ko‘ra, mintaqa barqaror rivojlanish strategiyasining subyekt sifatida baholanadi. Har bir mintaqa o‘ziga xos bo‘lgan iqtisodiy faoliyat, tabiiy-geografik shart-sharoitlari, ijtimoiy-demografik xususiyatlarga ega bo‘lib, boshqa mintaqalar bilan aynan ushbu jihatlar orqali o‘zaro farqlanadi. Shuningdek, har qanday darajadagi barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda mintaqalar iqtisodiyoti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda milliy va global darajalardagi barqaror rivojlanish strategiyalarida ko‘zlangan ustuvor maqsad va vazifalar mintaqa iqtisodiyotida amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Shu sababli, O‘zbekiston amaliyotida mintaqa barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uslubiyotini takomillashtirish talab etiladi. Mintaqa barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda uning maqsadi, subyekt, obyekt, tamoyillari, amalga oshirish mexanizmi, unga ta‘sir yetuvchi omillar, strategiyani amalga oshirish usullari va dastaklari to‘liq aks ettirilishi kerak.

⁶⁵ Muallif tomonidan tuzilgan





Fikrimizcha, Yangi O‘zbekiston sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasi 3-rasmda keltirilgan sxematik tuzilishga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan mintaqa barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uslubiyotida strategiyaning maqsadi barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalar “triadasi” o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikda rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u quyidagicha tavsiflanadi: mintaqa iqtisodiy tizimi amal qilish samaradorligini uni tashkil etuvchi tarkibiy komponentlari (iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mintaqaviy tizimlar) o‘rtasidagi o‘zaro mutanosibligini ta’minlash orqali oshirish va mahalliy aholi turmush farovonligini yaxshilash.



3-rasm. Mintaqa barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirish uslubiyoti⁶⁶

⁶⁶ Muallif tomonidan tuzilgan





Barqaror rivojlanish konsepsiyasining jahon mamlakatlari amaliyotida amal qilish xususiyatlari tahliliga ko‘ra, bu turdagi strategiyaga o‘tish evolyutsion, ya’ni bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilishi kerak bo‘ladi.

Keltirilgan 1-javdal malumotlaridan ko‘rinib turibdiki “A” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlarining kamida bittasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan va salbiy ta’sirga ega emas xarajatlar miqdori 26,4 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 7,7 foizni tashkil etadi.

1-jadval

Davlat byudjeti xarajatlarining “yashil” byudjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari⁶⁷, trln so‘m

Toifalar	2023 ijro	foiz	2024-yil tasdiqlangan	foiz	2025-yil prognoz	foiz
Jami	281,1	100	312,9	100	344,6	100
“A” toifa	39,1	13,9	32	10,2	26,4	7,7
“V” toifa	7,2	2,6	7,4	2,4	8,5	2,5
“C” toifa	0,9	0,3	2,4	0,8	1,3	0,4
“D” toifa	233,9	83,2	271,4	86,7	308,4	89,4

“V” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta’sirlarning kombinatsiyasiga ega bo‘lgan xarajatlar miqdori 8,5 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 2,5 foizni tashkil etadi. “C” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va ijobiy ta’sirga ega emas xarajatlar miqdori 1,3 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 0,4 foizni tashkil etadi. “D” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar miqdori 308,4 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 89,4 foizni tashkil etadi.

Xulosa va takliflar

Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish asosida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

1. Mamlakatimizda mintaqalarda «yashil energiya bozori»ni rivojlantirishga «yashil biznes»ga sarmoya kiritadigan tadbirkorlik subyektlarining “yashil energiya sertifikatini” xarid qilishga doir xarajatlarini foyda solig‘i bazasidan chegirib tashlash yo‘li bilan rag‘batlantirish mexanizmini joriy qilish zarur.

2. Mamlakat hududlarida sanoat sohasini rivojlantirish samaradorligini oshirish talab etiladi. Bunda mintaqalarning mavjud mineral xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga joylarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga qimmatbaho, rangli, nodir metallar, noruda kon va uchastkalaridan foydalanish huquqini erkin bozor tamoyillari asosida sotishning maqsadga muvof.

3. Mamlakat, mintaqalarda iqtisodiy rivojlanish strategiyasidan barqaror rivojlanish strategiyasiga o‘tishda ishlab chiqarish jarayonlarida inson va tabiat o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarda “ehtiyotkorlik” tamoyiliga ustuvorlik qaratilishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini har bir tumanda texnologik sanoat zonalarni tashkil qilish va barqaror rivojlanishini ta’minlashning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalari «triada»sini joriy qilish orqali takomillashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Weakening Growth, Financial Risks. World Bank. Global Economic Prospects, June 2023.: – World Bank, 2023. (<https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>)

⁶⁷ Muallif tomonidan tuzilgan





2. Christaller W. Die zentralen Orte in Suddeutschland: Eine okonomisch-geographische Untersuchung uber die Gesetzmassigkeit der Verbreitung und Entwicklung der Siedlungen mit stadtischen Funktionen //Jena. – 1933.p. 25.;
3. Eickelpasch A. The Industrial innovation Potential of the Regions: Stuttgart and Munich further ahead // German Institute for Economic Research. 2008. Vol. 4, № 8. – pp. 49-57;
4. Huggins R. (2003) Creating a UK Competitiveness Index: Regional and Local Benchmarking. Regional Studies, Vol. 37.1. – pp. 89-96;
5. Квинт В.Л., Концепция стратегирования. Т. II. СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС. 2020. – 164 с.:ил.- (Серия “Библиотека стратега”); Квинт В.Л., Бодронов С.Д. Стратегирование трансформации общества: знание, технологии, ноомика / Монография/ — СПб.: ИНИН им. С.Ю. Витте, 2021.-351 с.;
6. Ван Ю. Стратегическое планирование инновационного развития регионов России и Китая : Монография / под. науч. ред. В.Л. Квинта. – СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС, 2023. – 272 с.- (Библиотека стратега).;
7. Шацкая И.В. Концепция стратегического управления кадровым обеспечением инновационного развития России : монография / под. науч. ред. В.Л. Квинта. – СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС, 2021. – 340 с.- (Библиотека стратега);
8. Юсупов А.Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Ташкент, 1991. -38 с.;
9. Мирзиева С.Ш. Методологические основы стратегирования социально-экономического развития Узбекистана : монография. — — СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС, 2020. – 184 с.- (Серия “Библиотека стратега”);
10. Ахмедов Т.М. Регулирования территориальной организации производительных сил и комплексное развитие регионов Узбекистана. – Т.: Фан, 1992. с. 186;

